# Fanlar akademiyasiga Rossiyaning Ilm-fan va oliy ta’lim vaziri o’rinbosari Natalya Bocharova tashrif buyurdi

Bugun, 8-aprel kuni O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasiga Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) a’zo-davlatlari Ilm-fan va texnika bo’yicha rahbarlarining Oltinchi yig’ilishi doirasida Rossiya Federatsiyasi Ilm-fan va oliy ta’lim vaziri o’rinbosari Natalya Bocharova tashrif buyurdi. Mehmonni FA vitse-prezidenti S.Mirzaev hamda RT-70 radioobservatoriyasi direktori G.Shanin kutib oldi.

Uchrashuvda ikki davlat o’rtasidagi ilmiy aloqalar, jumladan, “Suffa” Xalqaro radioobservatoriyasi faoliyatini yo’lga qo’yish, u yerda ilmiy tadqiqotlarni olib borish ishlarini jadallashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar muhokama qilindi.

Bu kabi ilmiy hamkorlik aloqalari har ikki davlat uchun ham manfaatli ekanligi alohida ta’kidlandi.